

MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA “VIDEOUSUL” METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sunatova Ruxsora Akbar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti tarix ta’lim yo’nalishi 4-bosqich talabasi,
e-mail: ruxsora@gmail.com.tel.: +998907202804

Vaxidova Nozikoy Choriyevna

Ilmiy raxbar - Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
e-mail: nozik899@gmail.com.tel.: +998919660255

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20565586>

Annotatsiya. Ushbu ishda mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘qitishda “Videousul” metodining qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Metod video materiallar orqali mavzuni ko‘rgazmali va tushunarli tarzda yetkazish, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muhokama qilish va hissiy anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, “Videousul” metodining madaniyatlararo muloqot va darsga qiziqishni oshirishdagi samaradorligi alohida ta’kidlangan.

Tayanch so‘z va iboralar: Mustaqillik yillari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, Tarixiy voqealar, Videousul metodi, Kinofilm va hujjatli film, Ko‘rgazmali (vizual) materiallar, Tanqidiy fikrlash, Tahlil qilish ko‘nikmalari, Madaniyatlararo muloqot, Hissiy anglash, Ta’lim texnologiyalari, Innovatsion o‘qitish metodlari, Multimedia vositalari, Xronologik fikrlash, Tarixiy xotira, Ma’ruza va dars jarayoni, Slayd va prezentatsiya, Videomontaj dasturlari (Camtasia Studio, Bandicam), Emotsional ta’sir, Tarixiy shaxslar va qahramonlar, Ta’lim samaradorligi.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mavzusi o‘quvchilarda nafaqat tarixiy voqealarni o‘rganish, balki jamiyatning bugungi kundagi rivojlanish jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Ushbu mavzuni o‘qitishda turli metodlardan foydalanish mumkin, ammo zamonaviy ta’lim jarayonida video materiallardan foydalanish – “Videousul” metodi alohida ahamiyatga ega. Videousul metodining asosiy afzalligi shundaki, u tarixiy voqealarni ko‘rgazmali va tushunarli tarzda yetkazish, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, kinofilm va hujjatli materiallardan foydalangan holda dars o‘tkazish nafaqat mavzuni qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot, hissiy anglash va o‘tgan voqealarga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, “Videousul” metodi mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘qitishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Turkiya Respublikasi Qoradengiz texnika universiteti magistranti Zeynep çoban tomonidan 2011 -yilda yozilgan “Tarih derslerinde tarihi film ve dizilerin kullanimina ilişkin öğretmen ve öğrenci görüşleri” nomli magistrlik dissertatsiyasida aynan “Videousul” metodiga xos bo‘lgan usullar ya’ni tarixiy filmlar va seriallar yordamida tarix ta’limida ko‘rgazmali (vizual) materiallardan va filmlardan foydalanish haqida batavsil ma’lumot berilgan.

2012-yil Jeremy D. Stoddard tomonidan yozilgan “Film as a “thoughtful” medium for teaching history” (Film tarixni o‘qitish uchun “O‘ylangan” vosita sifatida) sarlavhasi ostida yozilgan kitobida filmlar orqali tarixni o‘rganish haqidagi fikrlarini batavsil bayon qilgan.

Normativ-huquqiy hujjatlar sharhi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil)

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining maqomi, davlat boshqaruvidagi o‘rni, konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlangan. Mavzuni siyosiy-huquqiy asos bilan bog‘lashda asosiy hujjat hisoblanadi.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi (1993-yil)

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining mustaqil qonunchilik, davlat tuzumi, va ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini tushuntirishda bevosita manba sifatida ishlatiladi.

3. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun (O‘zbekiston Respublikasi, yangi tahriri 2020 y.)

– Ta‘limda innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlardan foydalanish bo‘yicha huquqiy asoslarni belgilaydi. Bu mavzuni o‘qitishda metodik yangiliklar joriy etish imkoniyatini beradi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari (1991–2024 yillar)

– Xususan, Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga oid Prezident qarorlari va Dasturlarni o‘rganish orqali mavzuga zamonaviy, dolzarb yondashuv qo‘llaniladi.

Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati. Tarixiy bilimlarni mustahkamlash va ularni hayotiy tajriba bilan bog‘lashga xizmat qiladi. – O‘quvchilar Qoraqalpog‘iston Respublikasining mustaqillikdan keyingi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini real hayot misollarida o‘rganib, bugungi kundagi ijtimoiy tuzum va siyosiy tizimni yaxshiroq tushunadi. Zamonaviy o‘qitish metodi – “Videousul” metodidan – samarali foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu metod nafaqat tarix darslarida, balki boshqa fanlarda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy yondashuvlarni o‘rgatadi. O‘quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshiradi. Tarixiy voqealarni solishtirish, xulosa chiqarish, hozirgi siyosiy holat bilan bog‘lash orqali o‘quvchilar ijtimoiy masalalarga ongli yondasha boshlaydi. O‘quvchilarni test sinovlariga, yakuniy nazorat ishlariga va olimpiadalarga tayyorlashda samarali vosita hisoblanadi. Multimedia vositalari (video, audio, grafikalar) orqali mavzuni chuqurroq anglash va eslab qolish imkonini beradi. “Videousul” metodi orqali tarixiy voqealarni ko‘z bilan ko‘rish, voqealarning ketma-ketligini tushunish va esda saqlash osonlashadi. Ta‘lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni ommalashtirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilar va metodistlar uchun interfaol, texnologiyaga asoslangan yondashuvlarni sinfda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Mazkur mavzuni zamonaviy metodlar yordamida o‘qitish nafaqat tarixiy bilimlarni singdirish, balki o‘quvchilarda kengroq ijtimoiy qarashlar, tahliliy fikrlash, texnologiyadan foydalanish madaniyati va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda yuqori amaliy ahamiyatga ega.

“Videousul” metodidan foydalanishning ahamiyati. Tarixni o‘rgatish shunchaki fakt va sanalarni eslab qolishdan tashqari, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, xronologik fikrlash va madaniyatlararo tushunish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan, xususan, badiiy va hujjatli filmlardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Tarix darslarida o‘quvchilar faqat darsni tinglaydilar, zarurat bo‘lmasa gapirmaydilar, savol bermaydilar, faqat savollarga javob berishga harakat qiladilar. Bu bilan ular eslab o‘rganadigan shaxslarga aylanib boradi. Darslarda kinofilmlar va hujjatli filmlarni qo‘llash orqali kuzatib, xulosa yasay oladigan, kuzatish natijasida fikr taqdim qila oladigan, qiziquvchan, urushlardan tashqari hayotni (turmush tarzi yoki madaniyati, kiyim-kechak, iqtisod va h.k.) o‘rganadigan, tanqidiy fikrlashni yaxshi ko‘radigan, tarixga savol beradigan shaxslarni tarbiyalay olamiz. Agar bu usuldan foydalanish ommalashsa bu tarix o‘qitishda an’anaviy o‘qitish usullaridan xalos bo‘lish, darslarni yangi o‘qitish usullari bilan ta‘minlash orqaligina mumkinligi o‘rtaga chiqadi.

An'anaviy o'qitish hali hamon respublikamizning ko'plab oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotganligi sir emas albatta. Darslarni talabalar to'g'ridan-to'g'ri ma'ruza usulidan zerikishdan qutqarish uchun darslarni muhokama qilish, savollar berish, misollar keltirish va hatto tarixda qolgandek his qiladigan filmlar ko'rsatish orqali yanada jozibador holatga keltirish mumkin. Faqat shu tarzda fikrlaydigan, savol berish va izlanish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalash imkoni kuchayadi.

Zamonaviy ta'limga ko'ra, talabalar o'rganish jarayonida o'zlarini jarayonning faol bir qismi sifatida his qilishlarini anglab yetishlari kerak. Yoqoridagi holat ro'y berishi bilan muvaffaqiyatni imtihonlar orqali erishilgan muvaffaqiyatga aylantirishdan ko'ra, butun jarayon davomida talabaning rivojlanishini kuzatishga imkon beradigan o'qitish usuliga ega bo'lamiz. Tarix darslarida o'quvchilarning bilim olishiga yangi o'qitish usullarini qo'llab-quvvatlovchi vositalar, ayniqsa ko'rgazmali qurollar juda muhimdir. Chunki darslikning o'zi yetarli bo'lmasligi mumkin. Talabalarga tarixda sodir bo'lgan har qanday voqeada o'zlarining borligini his qilishlariga imkon beradigan motivatsiya berilishi kerak. [2.B.2] Talabalar o'zlarini faol his qilishlari va bir nechta sezgi organlaridan foydalanishlari mumkin bo'lgan barcha turdagi materiallardan foydalanishga undashlari kerak. Ular darsning o'zida harakatga keltirilishi kerak. Talabalar o'quv jarayonida ma'lumotlarni o'zlashtirishga harakat qilishlari va ma'lumotni taqdim qilish tajribasi orqali faol bo'lishlari hamda kerakli materialdan to'g'ri foydalanishlari kerak. Bu jarayon "Videousul" metodini qo'llashda kinofilmlar va hujjatli filmlardan foydalanish samara berishiga ishoradir.

Kinofilmlar tarixiy voqealarni real tasvirlash imkonini beradi. Aniq tarixiy filmlar va hujjatli tasvirlar orqali o'quvchi voqealarni tasavvur qilishga emas, balki bevosita "kuzatish"ga kirishadi. O'zini film qaxramonlari safida his qilishni boshlaydi. Bu esa ta'limda vizual ta'sirni kuchaytiradi hamda mavzuni tushunish uchun samarali vosita vazifasini o'taydi. Asosan kinofilm va hujjatli filmlardan ma'ruza darslari va mustaqil ish topshiriqlarida foydalanilsa smarali natija beradi. Oliy ta'lim muassasalarida tarix ta'lim yo'nalishi talabalariga mutaxassislik fanlarini o'tishda zamonaviy usullardan tashqari mavzuga oid badiiy, hujjatli filmlarni namoyish qilish bugungi ta'limning faol qismi sifatida tanilib bormoqda.

Ma'ruza darslarida ma'ruzachi rejalarni ishlab chiqadi, reglamentni taqsimlaydi, "Microsoft PowerPoint" dasturida tayyorlangan slaydga to'plagan ma'lumotlarini ishchi holatga keltirib joylaydi. Aksariyat hollarda ma'ruzachilar slayddan foydalanadilar. Slaydda mavzuga oid jadvallar, diagrammalar, xaritalar, rasmlardan tashari videolar ham joylanadi. Video joylash qismiga mavzuga oid bo'lgan kinofilm va hujjatli filmlardan parcha joylansa ma'ruza manbasining qiymati oshadi. Videolar kichik formatda, mavzuga oid kerakli qismi kesib olinib joylanadi. Videolarni qirqib olishda "Camtasia studio 8", "Bandicam" kabi videomontaj dasturlaridan foydalanish mumkin.

Bu usul ta'lim jarayonini qiziqarli va interfaol bo'lishiga yordam beradi. Filmlar dars jarayonini odatiy nazariy muhokamadan chiqarib, yanada jonli va qiziqarli o'tkazish imkonini beradi. Bu o'quvchilarda fanga qiziqish uyg'otadi. Guruhdagi aynan tarix faniga qiziqishi kuchli bo'lmagan o'quvchilar ham oson munozaraga qo'shilib keta oladi. O'quvchida ayni vaqtda topshirilayotgan vazifaga favqulotda fikr bildirishga imkon paydo bo'ladi.

Kinofilmlar hayot voqeligini badiiy tarzda aks ettirgani bois, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, mulohaza qilishga undaydi. Ta'lim jarayonida turli millat, din va madaniyat vakillarining hayoti, urf-odatleri, turmush tarzi haqidagi filmlarni ko'rsatish o'quvchilarda bag'rikenglik va hurmat tuyg'usini shakllantiradi.

Filmlar emotsional ta'sir orqali tarixiy xotirani mustahkamlaydi. Xitoy faylasufi, konfutsiychilik asoschisi va siyosiy arbob Konfutsiy “Eshitdim -unutdim, Ko'rdim-eslab qoldim. Bajardim-tushundim” deganda eslab qolish uchun ko'rish muhimligini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, filmlar orqali taqdim etilgan voqealar, qahramonlar va tarixiy shaxslarning obrazlari o'quvchining es-hotirasida uzoq saqlanib qoladi. Bu ta'lim samaradorligini yana xam oshiradi.¹

Kinofilm va hujjatli filmlar orqali turli millat va madaniyatlarning tafovutlari bilan bir qatorda umumiy jihatlari ham namoyon bo'ladi. Bu esa madaniyatlararo muloqot uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida filmlardan foydalanish orqali o'quvchilarda madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Ayniqsa Jahon tarixi, Etnologiya, Xalqaro munosabatlar, O'zbekistonning eng yangi tarixi, Tarix o'qitish metodikasi kabi mutaxassislik fanlarining o'qitilishida ushbu usul kutilgan natijani beradi. Shuningdek, aynan mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida boshqa tillarni o'rganish ishtiyoqini uyg'otish muhiti paydo bo'ladi. Bugungi globallashgan dunyoda bir nechta tillarni bilish mutaxassis uchun eng zaruriy jihatlardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida faqat chet tili yo'nalishlarida emas balki boshqa turli yo'nalishlarda ham ko'plab talabalar chet tillarini o'rganishni o'zlashtirmoqdalar. Bu albatta kelajak yoshlarning intellektual salohiyatli bo'lib yetishishlarida muhim rol o'ynaydi.

Kinofilmlar va hujjatli filmlar ta'lim jarayonida nafaqat ma'lumot berish, balki o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, bag'rikenglik, mulohaza va tahlil qobiliyatini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Zamonaviy ta'limda bunday usullardan keng foydalanish yosh avlodni dunyodagi madaniy xilma-xillikni anglagan, ochiq fikrli va tolerant shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.²

Xulosa qilib ayganda “Videosul” metodini qo'llashda kinofilm va hujjatli filmlardan foydalanish tarix fanini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonini vizual, interaktiv va samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Muallimlar filmlarni tanlashda tanqidiy yondashib, ularni o'quv maqsadlari bilan muvofiqlashtirishlari zarur.

Mavzuga oid ma'lumotlarni ma'ruza darsida yoritish uchun “Videosul” metodidan foydalanish.

Ushbu metoddan ma'ruza darslarida foydalanish maqsadga muvofiq. 80 daqiqa ma'ruzaga mo'ljallangan matn yoritilar ekan pedagogning taqdimotiga mavzuga oid badiiy filmlar, hujjatli filmlar, arxiv filmlari, ko'rsatuvlar va shunga o'xshash videovizual materiallar ishtirok etsa mavzuni ochib berishda bir xillikdan chekinish bo'ladi. Talabalarning o'zlashtirishlari uchun imkoniyatlar ko'payadi.

Buning uchun pedagog ma'ruzaga tayyorlanishdan oldin mavzuga oid videomateriallarni izlab topadi va ularning kerakli joyini maxsus dasturlar yordamida qirqib oladi. Ortiqcha mavzuga aloqador bo'lmagan qismlaridan foydalanilmaydi. Ma'ruzadan so'ng talabalarning o'zlashtirish natijalari ijobiy chiqishi uchun ma'lumotlar aniq va konkret bo'lishi lozim.

Mavzuga oid filmlar ro'yxati

¹ Дармилова С.В. Использование художественных фильмов в процессе формирования межкультурной и коммуникативной компетенции в вузе // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. — 2009. — № 3. [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovaniehudozhestvennyh-filmov-v-protse-formirovaniya-mezhkulturnoy-ikommunikativnoy-kompetentsii-v-vuze> (дата обращения: 11.05.2025).

² Jeremy D. Stoddard. Film as a “thoughtful” medium for teaching history. Learning, Media and Technology · April 2012. 37:3, P-271-288. To link to this article: <http://dx.doi.org/10.1080/17439884.2011.572976> (11.05.2025)

Nº	Filmning nomi	Filmning ishlangan vaqti
1	”Tengiz”	2021-yilda
2	„Ona“ va „Tanka“,	2002-yilda
3	„O‘g‘ri“	2009-yilda
4	„Kurort“	2010-yilda
5	„Qo‘shnilar“, „Umrning uch fasli“	2011-yili
6	„Qaysar“, „Mehrigiyo“	2012-yili
7	„Qo‘rg‘on“	2014-yili
8	„Ustyurtga yo‘l“	2016-yili
9	„Aydinlar“	2021-yili
10	“Sho‘rxok”	2022-yili

Izoh: Filmlar ro‘yxati A.N.Djaksimuratovanning “Qoraqalpoq kino san‘atida milliylik va zamonaviylikning tasvirlanishi” nomli maqolasidan olindi.

Ro‘yxati ko‘rsatilgan filmlarning barchasi mustaqillik davridan keyin ishlangan filmlar bo‘lib, “O‘zbekfilm” va “Qoraqolpoqfilm” konostudiyalari tomonidan hamkorlikda su‘ratga olingan. Bu filmlarda asosan Qoraqolpog‘iston Respublikasining Mustaqillik yillaridan keyingi yillaridagi ijtimoiy-siyosiy hayoti yoritilgan. Ba‘zi hollarda iqtisodiy hayot ham singdirib yuborilgan. Badiiy filmlardan tashqari bu metodni qo‘llash uchun hujjatli filmlar va joriy televideniye ma‘lumotlari va arxiv ko‘rsatuvlaridan ham foydalansa bo‘ladi.

Bundan tashqari mazkur usul tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tarixiy filmlar orqali voqealarga nisbatan munosabat bildirish, tahlil qilish, manbalar o‘rtasida taqqoslash kabi o‘quv vazifalarini bajarish mumkin. Kinofilm va hujjatli filmlar tahlili amalga oshirilganda esa talabalar munozaraga kirishadilar, fikrlar xilma-xilligi yuzaga keladi, har doim faol bo‘lmagan talbalar ham ko‘rgan videolari haqida fikr bildirishga urunib ko‘radilar. Natijada Konfutsiyning “Bajardim-tushundim” degan fikri amalga oshishiga guvoh bo‘lamiz.

Kinofilmlar va hujjatli filmlarni darslarda ishlatish madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi. Globallashuv jarayoni jamiyatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirmoqda. Shu munosabat bilan ta‘limda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish dolzarb masalaga aylannib bormoqda. Bu jarayonda ta‘limda kinofilmlar va hujjatli filmlar bilan ishlashni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat ma‘lumot manbai, balki insonlarning his-tuyg‘ularini, qarashlarini va madaniy farqlarni anglash, o‘tmish xotiralarini yodga olish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.³

“Videousul” metodi– bu dars jarayonida **video materiallardan (film, hujjatli lavha, animatsiya, interaktiv video)** foydalanish orqali **o‘quvchilar, talabalar bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiluvchi o‘qitish metodidir.**

Quyida **“Videousul” metodini qo‘llash usuli** bosqichma-bosqich va aniq tavsiflar bilan yoritilgan:

Maqsadi:

- Yangi bilimni ko‘rgazmali, tushunarli tarzda yetkazish;
- Diqqatni jalb qilish, darsga qiziqishni oshirish;
- Real voqelikni tasavvur qilishga imkon berish;

³ Писаренко В.И. Педагогический алгоритм работы с видеоматериалами // Перспективные информационные технологии и интеллектуальные системы. Таганрог: Изд-во ТРТУ. —2003. — Вып. 1 (13). — С. 77—83.

- Mustaqil tahlil qilish, muhokama qilish ko‘nikmasini shakllantirish.
- **Qo‘llash bosqichlari: Tayyorgarlik**
- O‘qituvchi dars mavzusiga mos video materialni tanlaydi (5–10 daqiqa).
- Videoning **asosiy mazmuni va maqsadi** belgilanadi: bu video nima uchun kerak?
- Talabalarga video tomosha qilishdan oldin **ko‘rsatmalar** beriladi:

- a. Nimalarga e‘tibor berish kerak?
- b. Tomosha jarayonida qanday savollar yuzaga kelishi mumkin?

Masalan: “Videoda tilga olingan tarixiy shaxslar kimlar?”, “Voqea qachon sodir bo‘lgan?”, “Qanday muammo ko‘tarilmoqda?”

Videoni namoyish etish

- Video **sinchkovlik bilan tomosha qilinadi**, zarur bo‘lsa, qismlarga bo‘lib ko‘rsatiladi.
- O‘qituvchi muhim joylarda **pauza qilib tushuntirish** berishi mumkin.
- Talabalar muhim jihatlarni **konspekt qilishi yoki belgilar qo‘yib borishi** mumkin.

Tahlil va muhokama

- Video ko‘rilgach, quyidagi ishlar amalga oshiriladi:
 - a. Savol-javob (Ko‘rilgan material asosida)
 - b. Juftlikda yoki guruhda muhokama
 - c. Asosiy xulosalarni chiqarish
- O‘qituvchi talabalarni **fikrlashga va tahlil qilishga** undaydi:
 - a. “Siz shu vaziyatda bo‘lsangiz, nima qilgan bo‘lardingiz?”
 - b. “Video sizda qanday taassurot qoldirdi?”

Mustahkamlash va baholash

- Talabalar videoga doir **test, esse, prezentatsiya yoki fikr bildiruv** orqali o‘zlashtirgan bilimlarini namoyon etadilar.
- O‘qituvchi **ko‘rgan materialni real hayot bilan bog‘laydi**:
 - a. “Bu holat bugungi kunda ham uchraydimi?”
 - b. “Qanday saboq oldik?”

Videosul metodining samarali qo‘llanishi uchun tavsiyalar:

Tavsiya	Sababi
Video 5–10 daqiqadan oshmasligi	Diqqat jamlanishi va charchab qolmaslik uchun
Har bir video oldidan aniq topshiriq berish	Maqsadli tomosha qilish uchun
Video tahliliga vaqt ajratish	Passiv tomosha emas, faol o‘rganishga aylantirish uchun
Savollarga javob yoki fikr yozishni talab qilish	O‘z fikrini ifodalashni o‘rgatish uchun

Xulosa qilib aytganda "Videosul" metodi – bu ko‘rgazmali, hissiy va tushunarli o‘qitish usuli bo‘lib, O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitishda kutilgan natijani beradi. "Videosul" metodi – bu ta‘lim jarayonida video materiallardan (kinofilm, hujjatli lavha, animatsiya, interaktiv video) foydalanish orqali o‘quvchilar va talabalar bilimni chuqurlashtirish, mustahkamlash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali o‘qitish metodidir. Ushbu metod nafaqat yangi bilimni ko‘rgazmali va tushunarli tarzda

yetkazishga yordam beradi, balki darsga diqqatni jalb qilish, voqelikni tasavvur qilish, muhokama va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi.

Metod quyidagi bosqichlarda qo'llaniladi: tayyorgarlik (video tanlash, maqsad va ko'rsatmalar belgilash), videoni namoyish etish (sinchkovlik bilan tomosha qilish, muhim jihatlarni belgilash), tahlil va muhokama (savol-javob, guruh ishlari, asosiy xulosalarni chiqarish), hamda mustahkamlash va baholash (test, esse, prezentatsiya, real hayot bilan bog'lash).

"Videousul" metodining qo'llanilishi nafaqat tarixiy va badiiy filmlar orqali bilim berish bilan cheklanmay, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, o'quvchilarda hissiy va madaniy anglash qobiliyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabalarda faol ishtirokni rag'batlantiradi va Konfutsiyning "Bajardim – tushundim" tamoyilini ta'minlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. А. Сагдиев. Г. Фузаилова, М.Хасанова. Тарих ўқитиш методикаси. Тошкент-2008.
2. Zeynep Çoban. Tarih derslerinde tarihi film ve dizilerin kullanımına ilişkin öğretmen ve öğrenci görüşleri. Trabzon. Haziran, 2011. 2-sayifa.
3. Jeremy d. Stoddard. Film as a "Thoughtful" medium for teaching history. Learning, media and technology · April 2012. 37:3, p-271-288. to link to this article: <http://dx.doi.org/10.1080/17439884.2011.572976> (11.05.2025)
4. O.Haydarov, S.Qoraboyev. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Samarqand – 2022. 168-182-betlar
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-usul qo'llanma. T.: "Sano-standart", 2015. 208 b.
6. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentsiya va ijodiy asoslari. O'quv-usulubiy qo'llanma. T.: "Sano-standart", 2015. 120 b.
7. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovation ta'lim texnologiyalari. T.
8. Дармилова С.В. Использование художественных фильмов в процессе формирования межкультурной и коммуникативной компетенции в вузе // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. — 2009. — № 3. [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovaniehudozhestvennyh-filmov-v-protssesse-formirovaniya-mezhkulturnoy-ikommunikativnoy-kompetentsii-v-vuze> (дата обращения: 11.05.2025).
9. Писаренко В.И. Педагогический алгоритм работы с видеоматериалами // Перспективные информационные технологии и интеллектуальные системы. Таганрог: Изд-во ТРТУ. — 2003. — Вып. 1 (13). — С. 77—83.